

JAMIYATDA O'RTA SINF VAKILLARINING ORTISHI VA DAVLATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARIGA IJOBIY TA'SIRIGA DOIR

Ahmatov Shohruh¹

Respublika Ma'nnaviyat va ma'rifat markazi

KEYWORDS

Stratifikatsiya, infratuzilma,
sinf, tadqiqot, prognoz, qatlam,
tengsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy
jarayonlari, tashxis.

ABSTRACT

Mazkur maqolada "Jamiyatda o'rtasinf vakillarining ortishi va davlatning rivojlanish istiqbollariga ijobiy ta'siriga doir" olib borilgan tadqiqotlar, qarashlar tahlil qilinadi. Shu bilan birgalikda o'rtasinf vakillari taraqqiyotning asosiy drayveri ekanligi, ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarni tashxislash kabi masalalar ko'rib chiqildi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15756734](https://doi.org/10.5281/zenodo.15756734)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish. Ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarni tashxislash va prognozlashtirish masalalari ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan sotsiologiya fanida dolzarb masala tariqasida tanlanib, bu kunga qadar jahon va mamlakatimiz sotsiologiya fanida turli sotsiologik ta'lilot va konsepsiylar doirasida tadqiq etilgan. Ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarni tashxislash va prognozlashtirish muammosiga oid ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislari tomonidan o'rganib kelinmoqda. O'tgan davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash usullari rivojlantirilib, ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarini tahlil qilishda qo'llanila boshlandi. Xususan, mazkur mavzuga doir ilmiy tadqiqot ishlari bir qator xorijlik iqtisodchi, sotsiolog, faylasuf, psixolog, politolog va tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan.

Jumladan, xorijda P. Sorokin, A. Giddens, K. Radcliffe-Brown, T. Parsons, M. George, M. Lipset, K. Marx, M. Veber, R. Dahrendorf, G. Skirbekk, N. Gille, D. Kingsley, M. Vilbert, T. Melvin, P. Bourdieu va boshqalar o'z ilmiy ishlarida raqobat va raqobatbardoshlik,

raqobatning yoshlar hayotiga ta'siri, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash masalalari tadqiq etilgan².

MDH davlatlari olim va tadqiqotchilaridan G. Gegel, M. Komarov, Yu. Volkov, V. Radayev, S. Frolov, Ye. Shastitko, va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarni tashxislash va prognozlashtirish muammosini nafaqat sotsiologik jihatlari balki, ularning psixologik va pedagogik jihatlari ham o'rganilgan.

Mamlakatimiz olim va tadqiqotchilaridan M. Bekmurodov, A. Xolbekov, A. Umarov, B. Farfiyev, N. Latipova, R. Ubaydullayeva, N. Sharipova, Sh. Aktanov va boshqalar tomonidan muayyan darajada ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Biroq qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning stratifikatsiyaga ta'siri masalasi tizimli sotsiologik tadqiqotlar asosida empirik jihatdan tadqiq etilmagan.

Shu sababdan ilmiy tadqiqotimda O'zbekistonda ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarni tashxislash va prognozlashtirish orqali stratifikatsiya jarayonlarni yoshlarning iqtisodiy-ijtimoiy tarbiyasiga ta'sirini, ijtimoiy himoya tizimiga ta'sirini, milliy o'zlik va etnik guruhlar stratifikatsiyasiga ta'sirini pozitiv tomonlarini, O'zbekistonda o'rta tabaqaning shakllanishi va rivojlanish dinamikasini, stratifikatsiya jarayonlari monitoringi va optimallashtirishning zamonaviy uslublarini tadqiq etgan holda nazariy-metodologik asoslarini tahlil etmoqdaman.

Mutaxassislarning fikricha, Har bir mamlakatda o'rta sinfni aniqlash mezonlari soni milliy rivojlanish xususiyatlariga qarab o'zgaradi. Ko'pgina tadqiqotchilar o'rta sinfga ta'rif berishda ijtimoiy, psixologik, siyosiy yoki mafkuraviy komponentlar emas, balki moddiy asoslar, iqtisodiy daromadning ma'lum darajasi, iqtisodiy xulq-atvori, xususiy mulkka egalik huquqini ustuvor deb biladilar. Darhaqiqat, bugungi kunda respublikada moliyaviy jihatdan badavlat va hatto o'ta boy odamlar ko'p.

Bugungi kundagi asosiy muammomiz shundaki, boylik o'zgalar mulkiga egalik qilishga qodir va qat'iy, lekin hech narsa yaratishga qodir bo'lмаган odamlar qo'liga o'tib ketgan. Shu bilan birga, ular o'z qo'lga kiritganlari noqonuniy ekanini tushunib, halol mehnat bilan yaratilgan o'zgalarning mulkiga sivilizatsiyalashgan jamiyatladagidek hurmat bilan emas, balki o'ljaning navbatdagi o'ljası sifatida qarashadi. Amaldagi nomenklatura noqonuniy sotib olingen mulk uchun hech qanday davlat funksiyalarini tan olmaydi. Bizning mulkdorimiz g'arblik hamkasbidan mana shunday farq qiladi, u uchun xususiy mulk nafaqat uning hayoti uchun normal sharoit yaratish vositasi, balki ma'lum ijtimoiy

¹ P.Sorokin "Social and Cultural Mobility" Nyu-York, 1927. A.Giddens. "Sociology". Polity Press. 2006. №14. A.Radcliffe-Brown "Structure and function in Primitive Society". London: Cohen/West. 1952. pp.10-15. T.Parsons, "The Social System". New York: Free Press, 1951. Mead, George H. Mind, Self & Society. University of Chicago Press, 1934. Lipset, S. M. Political Man: The Social Bases of Politics. Garden City, NY: Anchor Books, (1967). p. 28. K.Marx. "Das Kapital. Kritik der politischen Ökonomie". Gamburg: 1967. R. Dahrendorf. "Class and Class Conflict in Industrial Society" Stenford. 1959. M. Weber, Основные понятия стратификации //Социологические исследования. 1994. № 5. С. 147-156. Г. Скирбекк, Н. Гилле "Фалсафа тарихи". Тошкент. "Шарқ" 2002. Б.98-99. Kingsley Davis, Wilbert E. Moore. "Some Principles of Stratification" Nyu-York. 1945. Melvin M. Tumin. "Some Principles of Stratification" A Critical Analysis" Nyu-York. 1953. P.Bourdieu. "Distinction" A Social Critique of the Judgement of Taste". Parij. 1979.

vazifalarni ham bajaradi: yangi ish o'rirlari yaratish, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish, soliq to'lash va hokazo. Aks holda xususiy mulkni daxlsiz deb hisoblash mumkin emas. "Mulk qonuniy bo'lsagina muqaddas va daxlsizdir, keyin u hurmatga sazovor bo'ladi va faqatgina shu shart bilan u fuqarolik jamiyatining iqtisodiy assosiga aylanadi"³.

Tojikistonlik sotsiolog olim M. Tavolloyev o'rta sinf haqida quyidagicha fikr bildiradi. "O'rta sinf vakillarini aniqlashda ko'pchilik tojik tadqiqotchilari iqtisodiy mezonlarga yoki pul daromadlari ko'rsatkichlariga e'tibor berishadi. Masalan, tadqiqotchilarining ishlarida o'rta tabaqa vakilining iqtisodiy daromadi eng kam oylik ish haqi miqdoridan 10 barobar ko'p bo'lishi kerakligi; Oila daromadining 10 foizini oziq-ovqatga sarflaganlar boy, 75 foizi esa kambag'al hisoblanadi"⁴ deydi mutaxassisi o'z tadqiqotlarida.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor A. Xolbekovga ko'ra o'rta sinf tushunchasining o'ziga xosliklari bor. Shuningdek, o'rta sinfga mansublikning yagona iqtisodiy mezoni ham yo'q. Bunday mezon har bir davlatning taraqqiyot darajasidan, aholi jon boshiga o'rta hisobda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotdan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin. Hatto rivojlangan mamlakatlardagi bir necha million dollar miqdorida jamg'armasi bo'lgan advokatlar, artistlar, olimlar, kichik biznes egalari turmush tarziga ko'ra, yirik kapital vakili emas, o'rta sinf vakili hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga tayangan har bir jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning mavjudligi me'yoriy holat sifatida qabul qilinishi lozim. Shu munosabat bilan ijtimoiy tengsizlik darajasini monitoring qilib borish ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Aholining turli yirik qatlamlari orasidagi katta tafovut oxir oqibatda radikal xarakterdagi g'oyalarga moyil shaxslarda salbiy muhit yaratilishiga va buning oqibatida ijtimoiy taranglikni keltirib chiqarilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Jamiyatning nafaqat barcha guruhlari, shuningdek alohida shaxslar o'rtasida moddiy boylik, imkoniyat, mukofot kabilarni taqsimlanishining umumiyligi tendensiyasi jamiyatdagi tabaqalanishning tasnifi sifatida sotsiologik nuqtayi nazardan katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda mavjud tuzilma ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqarishga olib keluvchi holatlarni vujudga keltiradi, chunki har bir inson u yoki bu kasbiy, sotsial, yosh va shunga o'xshash guruhlarga tegishli hisoblanadi⁵.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'rta sinf o'rtacha va barqaror daromadga ega, ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy kabi ehtiyojlarini mustaqil ravishda qondira oladi. boshqa sinflarga nisbatan barqarorlik, mehnatsevarlik, ta'limga bo'lgan intilish va ijtimoiy faollik bilan ajralib turadi. U jamiyatda muvozanatni saqlash, taraqqiyotga turtki berish va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida "Ko'pri" vazifasini bajaradi.

² Р.Симонян Средний класс: социальный мираж или реальность // Социологические исследования. – 2009. – №1. – С. 57.

³ M.Tavolloyev Tojikiston Respublikasida o'rta sinfnı rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Dushanbe-2021-y. Eslatib o'tamiz, pastki chegara (mutlaqo kambag'al) har bir oila a'zosi uchun kuniga 1,8 AQSh dollarini, ikkinchi chegara "Nisbatan" kambag'al - 2,5 dollardan kam va uchinchi chegara - 4,3 dollarni tashkil qiladi.

⁴ A.Xolbekov O'zbekistonda ijtimoiy hayot transformatsiyasi Toshkent-2021-y. 153-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. P.Sorokin "Social and Cultural Mobility" Nyu-York-1927-yil.
2. Р.Симонян Средний класс: социальный мираж или реальность // Социологические исследования. – 2009. – №1.
3. M.Tavolloyev Tojikiston Respublikasida o'rta sinfni rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Dushanbe-2021-yil.
4. A.Xolbekov O'zbekistonda ijtimoiy hayot transformatsiyasi Toshkent-2021-yil.